



## ALOHIDA EHTIYOJLARI BO`LGAN BOLALARGA LOGOPEDIK YORDAMNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Latifova Dildora Shodiyorovna

*Oqdaryo tumanidagi alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan (aqli zaif) bolalar uchun 63-sonli maktab internatning logoped o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Logopedik yordam xususiy sektorda ta`lim va sog`liqni saqlash yo`nalishida amalga oshirilmoqda. Nutq nuqsoniga ega bo`lgan bolalar toifalari tarkibiga ko`ra polimiorf bo`lib, ular turli-tumandir. Nutq nuqsonlari turlicha etiologiya va patogenezga ega bo`lib, birlamchi nuqsonlar bilan bir qatorda ikkilamchi nuqsonlar ham kuzatilishi mumkin.

**Kalit so`zlar:** tashkil etish, logopedik yordam, kamchiliklar, bolalar, nutq, og`ir nutq nuqsonlari, takomillashtirish, tizim, ta`lim va sog`liqni saqlash, xususiy sektor.

### KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida nutqida nuqsoni bo`lgan bolalarga logopedik yordam ko`rsatishning hududiy tizimini rivojlantirishning istiqboldagi yo`nalishlarini belgilash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va ruhan sog`lom bo`lishi bilan belgilanadi. Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog`lom, nogiron tug`ilishi esa har qanday oila uchun fojeadir. Mamlakatimiz mustaqillikni qo`lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko`zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiciga jiddiy e`tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz, natijalarida ham yangi O`zbekiston bu borada o`ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko`rsatiladi [1,2,3,4].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA YeMPIRIK TAHLIL

Respublikamizda bugungi kunda logopedik yordamni tashkil etish borasida erishilgan ma'lum yutuqlarga qaramay, logopedik jarayonni tashkil etuvchi sifatli kadrlar ta'minotining yetishmasligi; ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalarining qisqarishi; inklyuziv ta`lim va maxsus ta`lim bilan bog`liq shakllangan stereotiplar o`rtasidagi tafovut singari muammolar aniqlandi. Respublikada logopedik yordam tizimining rivojlanishida erishilgan yutuqlarga qaramay, mazkur tizimni takomillashtirish imkoniyati va zaruriyati mavjud. Maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar, o`smirlar va kattalarga logopedik yordam ko`rsatishning samaradorligini oshirish: nutq nuqsonlari, ikki tillilik holatlarini hisobga olish; mutaxassislarning sifatli va o`z vaqtidagi yordamini tashkil etish holatlarida amalga oshishi mumkin, deb tahmin qilamiz. Respublikada bolalarga logopedik yordam ko`rsatish borasida qator qiyinchiliklar kuzatilib, ular orasida logopedik yordam ko`rsatuvchi muassasalar



sonining yordamga muhtoj bolalar soniga mos kelmasligi yetakchi muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, korreksion ish samaradorligi ma'lum darajada mutaxassislar (tarbiyachilar, logoped- o'qituvchilar) malakasini oshirishga, jumladan, ta'limning interaktiv shakllarini kiritish orqali ular tomonidan maqsadli, muammoli va malakaviy kurslarni o'tashga bog'liq [2]. Zamonaviy bosqichda logopedik yordam samaradorligi tahliliga doir tadqiqotlar mazkur yordamning yetarli emasligini, ya'ni, unga muhtoj bolalarni qamrabolmasligini ko'rsatdi [3].

Logopedik yordamning o'z vaqtida ko'rsatilmasligi bilish jarayonlarining rivojlanishiga, shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, nutq nuqsoniga ega shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga to'sqinlik qiladi.

Biroq respublika aholisiga logopedik yordam ko'rsatishni tashkil etishda qator kamchiliklar mavjud: joylardagi sog'liqni saqlash organlari va muassasalari tomonidan qishloq, shuningdek shahar aholisiga logopedik yordam ko'rsatishning barcha imkoniyatlaridan foydalanilmasligi; logopedik yordamni tashkil etishdagi muhim kamchilik sifatida "xavf" guruhiga mansub bolalar bilan erta korreksion ishlarning amalga oshirilmasligi; ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi, sog'liqni saqlash tizimiga qarashli muassasalarda tekshiruvni amalga oshirishdagi kompleks yondashuv va logopedik yordam ko'rsatishning talab darajasida tashkil etilmaganligi va hokazo.

Ilmiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar tahlili asosida respublikamizda bolalarga logopedik yordamni tashkil etish va ko'rsatishga doir ma'lum yutuqlar aniqlandi; mazkur tizimni takomillashtirish, nutqiy nuqsonlarning tarqaganligi va milliy- hududiy xususiyatlarni e'tiborga olib mazkur yordam ko'rsatishning yangi shakllarini izlash zaruriyati va imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi va eksperimental tasdiqlandi. Arxiv hujjatlarini o'rganish asosida respublikamiz logopedik yordamning tashkil etilish tarixi tafsiflandi. Respublikada eng keng tarqagan nutqiynuqson nutqning to'liq rivojlanmaganligi ekanligi, mazkur holat hududlarning markazdan chetda joylashganligi, logopedik bilimlarning yetarlicha targ'ib etilmasligi, ikki tillilikning mavjudligi bilan yanada murakkablashadi. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarining logopedik guruhlarida bolalarga korreksion yordamni ko'rsatish zaruriyatini shuningdek, yordamning yangi shakllarini izlash zaruriyatini asoslaydi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib quyidagi qisqacha tavsiyalar bilan maqolani tugatmaqchimiz. Rivojlanishida kamchiligi bor bolalarning barcha yoshda nutq, bilish faoliyati, emotsiyonal-irodaviy sohalaridagi nuqsonlarni bartaraf etish logopedik yordamni sifatli, bugungi kun talabi asosida takomillashtirish va bu tizimda logoped, tibbiy xodim, tarbiyachi, psixolog va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali ta'minlanadi.



## ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mo'minova L.R. Nutq kamchiliklari: bartaraf etish texnologiyalari. – Toshkent, 2017. –66 b.
2. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» o'quv metodik qo'llanma. Toshkent «Chashma print» 2011.
3. Golubeva G.G. Korreksiya narusheniy fonetisheskoy storoni reshi u doshkolnikov. Izd-vo «Soyuz» – M., 2011.
4. Krauze YE.N. Logopediya. Izd-vo «Korone print» – M., 2013.
5. Mo'minov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 2013.
6. Shermatov, A. A., ugli Yuldashev, S. A., & Kholmatova, Y. N. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE LAKOMA-T PREPARATION FOR THE PROPHYLAXIS OF OPHTHALMOGYPERTENSION IN THE PERIOD AFTER ULTRASOUND PHACOEMULSIFICATION (FEC) CATARACT OPERATION IN UNCOMPLICATED CATARACTS. *Oriental Journal of Medicine and Pharmacology*, 2(05), 1-9.
7. Bakhramjon, M., & Khalmuhammedova, T. M. (2023). Influence of Family Lifestyle, Medical-Biological and Socio-Hygienic Factors in the Formation of Children's Health. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 21-26.
8. Mamatkulov, B. M., Umurzakova, D. A., & Raxmatullayeva, M. K. (2023). Some Aspects of the Development of Osteochondrosis of the Spine. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 15-20.
9. Уразалиева, И., Маматкулов, Б., Тураев, Б., & Рахматуллаева, М. (2022). ДУНЁДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШТИРИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ.
10. Erkin, E., Dilmurod, M., & Navbakhor, K. (2022). MEDICINAL SCHIZOPHYLLUM COMMUNA FR. THE FIRST REPORT OF THE FUNGUS WHICH IS DISTRIBUTED IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN. *Universum: химия и биология*, (11-3 (101)), 13-16.
11. Sh, N. G., Salimova, D. E., & Alisherovich, B. A. (2022). RELATIONSHIP BETWEEN DIABETIC NEPHROPATHY AND CARDIAC DISORDERS IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *PEDAGOG*, 1(2), 337-340.
12. Shukhratovna, Negmatova Gulnoza, and Salimova Dildora Erkinovna. "THE ROLE OF GASTROINTESTINAL HORMONES IN THE PATHOLOGY OF THE DIGESTIVE SYSTEM." *PEDAGOG* 1, no. 3 (2022): 408-412.
13. Gafurova, S. S., & Yusuphadjaeva, S. T. (2023). ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND THE EFFECTIVENESS



OF PSYCHOTHERAPY AND PSYCHOPHARMACOTHERAPY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(1), 110-115.

14. Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). METHODS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL PSYCHOTHERAPY IN THE TREATMENT OF RHEUMATOID ARTHRITIS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 701-706.
15. Юсупходжаева, С. Т. (2020). Психоэмоциональные расстройства при ревматоидном артите и методы их психокоррекции. *Журн. Неврология*, (3).
16. Ахмедова, Н. А., & Темирова, М. Б. (2022). Влияние микробиоценоза кишечника на клиническое течение хронического панкреатита и его коррекция (Doctoral dissertation, Ташкент).
17. Касимова, М. Б., Ахмедова, Н. А., Махаматходжаева, Х. Б., Шарапов, З., Худойназаров, А., & Кадирова, Ш. (2022). Erap-1 and il-23r as a leading genetic predictors of development of ankylosing spondyloarthritis.
18. Ахмедова, Н. А., Нурмухамедова, Н. С., & Алиева, К. К. (2022). Ведение больных бронхиальной астмой в сочетании с ишемической болезнью сердца.

